

TALABALARNI MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA MENTAL XARITADAN FOYDALANISH

Bazarova Ruzigul Shakarovna, S.N.Holiqulov

**Guliston davlat universiteti katta o'qituvchi,
Guliston davlat universiteti talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bilim oluvchining ilmiy-amaliy tayyorgarlik saviyasi, tafakkur darajasi, intellektual salohiyati, og'zaki nutqi, savodxonlik darajasiga jiddiy e'tibor qaratilishi ularga uy vazifasi berish va undan ijobiy natijaga erishtirish, biologiya yo'nalishi talabalarini mustaqil ishlarni tashkil etishda mental xarita tuzish bilim olish uchun afzalliklari, ta'lim sifatini ta'minlashda ular bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy, mega, meta kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashni amalga oshirish uchun professor o'qituvchilar o'z malakasi va pedagogik mahoratini orttirish borasida mukammal ravishda izlanishlari, ilg'or tajribalarni o'rganib amaliyotga joriy etishga jadallik bilan kirishishlari lozimligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mental xarita, model, loyihalash, xususiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье обосновывается необходимость серьезного внимания к уровню научно-практической подготовки обучающихся, уровню развития мышления, интеллектуального потенциала, устной речи и грамотности, польза от предоставления им домашних заданий и достижения положительных результатов, польза создания ментальной карты для студентов-биологов при организации самостоятельной работы, необходимость тщательного изучения и повышения квалификации и педагогического мастерства преподавателей, а также необходимость изучения и внедрения передовых практик для контроля и оценки их знаний, умений, навыков, квалификации, базовых и естественнонаучных частных, мега и мета компетенций в целях обеспечения качества образования.

Ключевые слова: Ментальная карта, модель, проектирование, частная компетентность, профессиональная компетентность.

Abstract. The article substantiates the need for serious attention to the level of scientific and practical training of students, the level of development of thinking, intellectual potential, oral speech and literacy, the benefits of providing them with homework and achieving positive results, the benefits of creating a mental map for biology students when organizing independent work, the need for careful study and improvement of the qualifications and pedagogical skills of teachers, as well as the need to study and implement advanced practices for monitoring and assessing their knowledge, skills, abilities, qualifications, basic and natural science private, mega- and meta competences in order to ensure the quality of education.

Key words: Mental map, model, design, private competence, professional competence.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda insonning ilmiy-amaliy tayyorgarlik saviyasi, tafakkur darajasi, intellektual salohiyati, og'zaki nutqi, savodxonlik darajasiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda talabaga mustaqil ish vazifalari

berish va undan ijobiy natija kutish hamisha ham samara beravermaydi, kuchsizroq talaba uchun hatto bu zararli bo'lishi ham mumkin. Ta'lim oluvchida yetarli bilim zahirasi paydo qilmay turib, ularni yaratishga undasak, topshiriqlar nari-beriddalanadi bu esa fanlardan yetarlicha bilim olishga asos bo'lmaydi[3,4,5]. Ta'lim oluvchilarning tashabbusi yo'qdan paydo bo'lishi mumkin emas. Ularni yaratishga o'rgatish, buning uchun ularda kerakli bilim va tajriba shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash kerak[8]. Hukumatimiz tomonidan yuqori malakali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun belgilangan vazifalar muammolarini kompleks hal etish zarur, bu ko'plab omillarga bog'liq: ta'lim mazmunini malakali loyihalash, zamonaviy usullar, o'quv jarayonining didaktik vositalari va texnologiyalari, shuningdek o'qituvchilarning doimiy malakasi oshirish va talabalarning mustaqil ishlarni bajaritish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish hamda ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayoni qayta ko'rib chiqib uni takomillashtirishni o'z ichiga oladi[1,2]. Har qanday mental xaritaning muvaffaqiyatli bo'lishi ikki shart bilan oldindan belgilanadi: birinchidan, xaritaning maqsadini hisobga olgan holda va xaritada bo'layotgan hodisalarning mohiyati va xususiyatlarini chuqur anglashga asoslangan muammoning to'g'ri shakllanishi asosida; ikkinchidan, fanning prinsiplari, qoidalari va normalariga muvofiq modelni mohirona qo'llash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda mental xaritalarni yaratish, amaliyotga tadbiiq etish va ta'lim jarayoniga qo'llash, oliy ta'limdagi eng muammoli vazifalardan biri sanaladi. Mental xaritalar yordamida nafaqat ta'lim oluvchi o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirib, mustahkamlaydi, balki mental xaritani fanning turli sohalarida qo'llash imkoniyatini beradi. Shuni qayd etish mumkinki, mental xaritaning zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etilishi bugungi kunda ijobiy natijalar bermoqda. Mental xaritalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitish shakllarini joriy etish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Buning uchun har bir pedagog o'z ustida mukammal ishlashi, zamon bilan hamnafas bo'lishi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o'z faoliyatida doimiy ravishda joriy etib borishi talab etiladi. Fanlarni o'qitishda mental xaritadan yangi mavzuni o'rganish jarayonida, o'quv materialini mustahkamlash va talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashda foydalanish tavsiya etiladi. Mental xaritadan yangi mavzuni o'rganish, ma'ruza va amaliy mashg'ulot, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash jarayonida foydalanish tavsiya etiladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlar bo'yicha mustaqil ishlari ta'lim jarayonining muhim shakli emas, balki uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lish talab etiladi. Chunki, mustaqil ish talabada ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan umummadaniy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga va professional faoliyatini muvoffaqiyatli olib borishi uchun chuqur bilim va malakalarni egallashga xizmat qiladi. Shu bilan birga mustaqil ishlarni kompetentli yondoshuv printsiplari asosida tashkil etish orqali bilimlarni egallashning faol metodlariga o'tish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini hamda bo'lajak kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda jamoaviy o'qitishdan individual o'qitishga o'tish


imkoniyatlarini beradi. Bu yerda asosiy masala fanlar bo'yicha mustaqil ishlarga ajratilgan soatlar hajmini oshirish ustida emas, balki talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni prinsipial jihatdan qayta ko'rib chiqish, talabalarda mustaqil bilim olish qobiliyatlarini shakllantirish, olgan bilimlarini amaliyotda joriy etish va ularni bo'lajak kasbiy faoliyatiga adaptatsiyalash vazifalari nazarda tutiladi[6,7]. Shu munosabat bilan talabalarga ta'lim berish sifati hamda ularning mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish hamda to'g'ri tashkil etishda biologiya yo'nalishida Mikrobiologiya va virusologiya fanidan "Mikroorganizmlarning morfologiyasi va hujayraviy tuzilishi" mavzusida tuziladigan Mental xarita tuzish o'quv jarayoniga, qo'llaniladigan didaktik vositalariga, o'qitish metodlariga va texnologiyalariga bevosita bog'liq. To'g'ri tanlangan didaktik vositalar, o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi va talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirishga imkon beradi. Ushbu fanda talabalarning mustaqil ta'limi va ishini nazorat qilish va baholashda kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi. Mental xarita talabalarni darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, o'quv materialini tizim shaklida tasavvur qilish, ob'ektlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlash, tahlil qilish, qiyoslash, vujudga keladigan muammolarni hal etish maqsadida fikr yuritish, tanqidiy-tahliliy fikr yuritish, umumlashtirish, xulosalash va o'z fikrini bayon etishga undaydi. Mental xarita o'rganilayotgan bob yoki mavzu mazmunini shartli belgilar, faktlar, simvollar yordamida mantiqiy tasviri bo'lib, o'quv materialini konstruksiyalar, sxema va jadval tarzida qayta ishlanishi natijasida shakllantiriladi. Mental xarita tuzish-shaxs tomonidan katta hajmdagi axborotni yaxlitligicha o'rganish jarayonini mukammallashtirish maqsadida matnni rekonstruksiyalash, tahsil oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni loyihlashga imkon beruvchi vosita hisoblanadi. Mental xarita bir maqsad uchun tuziladi va aniq vazifa fikrlashni vizualizasiya (vizualizasiya-maqsaddan nazarda tutilgan tasavvurdagi obrazini yaratish) qilishning oddiy va samarali usuli sanaladi. Bu usul asosiy fikr yoki g'oyalarni yaratish, rivojlantirish va tahlil qilish uchun ishlatiladi. Mental xarita tuzish g'oyasi qaysidir jihat bilan daraxtni esga soladi. Uning tanasi-markaziy g'oya, shoxlari esa undan kelib chiqadigan tasavvurlar. Markaziy g'oya loyiha, vazifa, muammo, savol yoki bilim sohasi bo'lishi mumkin, keyin esa u tarkibiy qismlarga bo'linadi. Mental xaritalar o'zaro bog'liq tushunchalarni ifodalash, ma'lumotni tartibga solish, tushunish, o'rganish va uzatish uchun manba sifatida ishlatiladi. Mental xaritadagi tushunchalar og'zaki va grafik jihatdan ifodalanishi mumkin. Garchi bu ma'lumotni tartibga solishning nisbatan sodda usuli bo'lsa-da, u ba'zi bir prinsiplar va nazariy asoslarga asoslangan. Mental xaritani tuzish uchun avval asosiy g'oya yoki mavzuga aylanadigan markaziy tushuncha yoki tasvirni yaratish kerak. Keyinchalik asosiy tashkiliy g'oyalar bayon qilinadi va asosiy konsepsiya atrofida tarqaladigan chiziqlar bo'yicha taqsimlanadi. Keyinchalik, ushbu asosiy g'oyalarning har biriga tegishli kalit so'zlar aniqlanadi va ular ikkinchi darajali manbalarga tarqatiladi. Ushbu jarayon natijasida olingan diagramma aniq va to'g'ri ko'rinishda qayta ko'rib chiqilishi, tuzilishi va to'ldirilishi mumkin. Mental xarita qanday bo'lishi kerakligi borasida yagona bir qoida mavjud emas.

Mikrobiologiya va virusologiya fanidan Mental xarita tuzishda asosiy vazifa belgilanadi: birinchisi-asosiy fikr yoki g'oyani yaratish, ikkinchisi-birinchi daraja tushunchalarni aniqlash, uchinchi-mavzularning ikkinchi darajali tushunchalarni rivojlantirish, to'rtinchi-aniqlashtirish, uchinchi va to'rtinchi darajali bog'lanishlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi talabalarga Mikroorganizmlarning morfologiyasi va hujayraviy tuzilishini oldin tashqi va ichki strukturaviy tuzilishi, morfologiyasini taqdim etuvchi shablon xaritasi orqali talabalarga nazariy materialni o'rganayotganda o'z-o'zini nazorat qilish va to'ldirish uchun taklif bildiradi. Talabalar faoliyati berilgan topshiriqlar mazmunidan kelib chiqib, aqliy hujum, davra suhbatlari, munozaralar va boshqa shakllarda tashkil etadi hamda ta'sir etuvchi omillarga oid tayanch iboralarni keltiradi va istalgan har biriga ma'lumot keltirishadi. Shu tariqa mavzu mustahkamlanadi. Mental xarita talabalarga yangi ma'lumotlarni tez va oson o'rganishda turli masalalarni mustaqil yechishda yordam beradi. Mental xaritadan fanlarni o'qitishda foydalanish talabalarda o'rganilayotgan materialga ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi, chunki vizual, tuzilgan materialni eslab qolish osonroq bo'ladi, mental xaritani tuzishda foydalanilgan ma'lumotlar yodda uzoqroq saqlanadi va yangi muammolarni hal qilishda ancha samarali beradi. Umuman olganda biologiyaga oid fanlarni o'qitishda mental xaritalardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega. Jumladan; yangi bilimlarni tez egallash, bilimlarni mustahkamlash, egallangan bilimlarni kompleks qo'llash, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, bilimlarni nazorat qilish, baholash va korreksiyalash imkonini beradi bu esa, bo'lajak kasb egalarida aqliy operatsiyalarni bajarish orqali B. Blum taksoniyasiga oid o'quv maqsadlarni egallash barobarida ularda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Har qanday xaritaning qadr qimmati-uning mukammalligi, aniqligi, zamonaviyligi va mazmunining ishonchliliigi har doim shu xaritani tuzishga jalb etilgan manbalarning sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuni qayd etish mumkinki, mental xaritaning zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etilishi bugungi kunda ijobiy natijalar bermoqda. Mental xaritalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitish shakllarini joriy etish hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Buning uchun har bir pedagog o'z ustida mukammal ishlashi, zamon bilan hamnafas bo'lishi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o'z faoliyatida doimiy ravishda joriy etib borishi talab etiladi. Biologiya fanlarni o'qitishda mental xaritadan yangi mavzuni o'rganish jarayonida, o'quv materialini mustahkamlash va talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashda foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini ta'minlashda talabalar bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy, mega, meta kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashni amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar o'z malakasi va pedagogik mahoratini orttirish borasida mukammal ravishda izlanishlari, ilg'or tajribalarni o'rganib amaliyotga joriy etishga jadallik bilan kirishishlari lozim va ushbu amaliyotdan foydalanish bilan birga quyidagi natijalarga erishadi. - mental xaritadan fanlarni o'qitishda foydalanish talabalarda o'rganilayotgan materialga ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi, chunki vizual, tuzilgan materialni

eslab qolish osonroq bo'ladi. - mental xaritani tuzishda foydalanilgan ma'lumotlar yodda uzoqroq saqlanadi va yangi muammolarni hal qilishda ancha samarali bo'ladi. - yangi bilimlarni tez egallash, bilimlarni mustahkamlash, egallangan bilimlarni kompleks qo'llash, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, bilimlarni nazorat qilish, baholash va korreksiyalashga ega bo'ladi. - Mental xarita shakllantirishning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, bo'lajak kasb egalarida aqliy operatsiyalarni bajarish orqali B.Blum taksoniyasiga oid o'quv maqsadlarni egallash barobarida ularda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Mental xarita.



Foydalanilgan adabiyaotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Abdurasulova S.Sh., Bazarova R.Sh. Biologiya yo'nalishi talabalarini mustaqil ishlarni tashkil etishda mental xarita tuzish afzalliklari. "Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda milliy va xalqaro tajribalar: yutuqlar, muvaffaqiyatlar va yechimlar" nomli onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 235-238 b.
4. Grishanova N. Oliy kasbiy ta'limni rivojlantirishning yangi paradigmasi to'g'risida // Almamater. -2007. -№ 4.-C. 8-13.
5. Karimov N. M., Karimova Z.O. Universitet talabalarining mustaqil ishini tashkil etishga innovatsion yondashuvlar "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari " mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-y.714-718 b



6. MAMATKULOVA, A. U. N. (2025). SO 'ZNING FUZIYON O
'ZGARISHLARI VA AGGLYUTINATSION HODISALAR. «ACTA NUUz»,
1(1.8. 1), 234-236.

7. <https://namdu.uz>

8. <https://interscience.uz>

9. <https://lib.bimm.uz>.